



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI DIREKTORINING B U Y R U G‘ I

2025-yil 4-yanvar

13 -sonli

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda PF–227-son Farmoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda PF–227-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda PF–227-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda – Farmon) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmonga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga, jumladan, quyidagi o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF–6247-son Farmoniga:

birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilar tomonidan **har yili 1-aprelga qadar** O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti va **davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan** hududlar, tuman (shahar)larga taqsimlangan mablag‘lar bo‘yicha ma’lumotlarni **tegishli xalq deputatlari Kengashlariga** taqdim etib borilishi;

davlat organlari va tashkilotlari **har chorakda** budjet tizimi budjetlari mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlar smetasi, sarflangan mablag‘lar, shartnomalar (tovar/xizmatlarni yetkazib beruvchilar) hamda qabul qilingan tovarlar va xizmatlar to‘g‘risidagi **ma’lumotlarni rasmiy veb-saytlariga joylab borishi;**

barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari, **ustav fondida** (ustav kapitalida) **davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq** bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari, **davlat unitar korxonalari har chorakda** budjet tizimi budjetlari mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan

xarajatlar smetasi va ularga asosan amalga oshirilgan xarajatlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish bo'yicha imzolangan shartnomalar hamda ular asosida qabul qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) hamda obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni **rasmiy veb-saytlariga joylab borishi**;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-15-son Farmoniga **qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan** yer uchastkalarining elektron onlayn-auksion savdolari orqali ijara huquqini sotishdan tushgan mablag'larning **5 foizini tuman va shaharlar soliq inspeksiyalarining budjetdan tashqari jamg'armalariga yo'naltirilishi**;

Soliq qo'mitasini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini sotish bo'yicha **to'lovlarni undirishga mas'ul etib belgilash**;

Soliq qo'mitasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va **"Elektron onlayon auksionlarni tashkil etish markazi"** AJ bilan birgalikda **2025-yil 1-fevralga qadar o'z ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish orqali** qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini sotish bo'yicha **har bir ijaraga oluvchi uchun shaxsiy kartochka** hamda **to'lovlarning aniq hisobi yuritilishini** ta'minlashi lozimligi;

d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi "Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-100-son Farmoniga 2025-yil 1-yanvardan boshlab moliyaviy va boshqa xavflarning oldini olish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, **vazirlik va idoralar, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yirik tashkilotlarda** ularning birinchi rahbarlari boshchiligida kollegial asosida tuziladigan **"Xavflarni boshqarish" qo'mitalarining vazifalariga quyidagi o'zgartirishlar kiritilganligi**:

tizim faoliyati va maqsadli ko'rsatkichlarga (indikatorlarga) erishish bilan bog'liq moliyaviy, operatsion hamda ichki nazoratga oid aniqlangan xavflarning ro'yxati shakllantirilishi va yangilab borilishini ta'minlash **strategik rejalashtirishga mas'ul tuzilmalari** tomonidan amalga oshirilishi;

xavflarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha faoliyatni samarali tashkil etish tegishli **tarkibiy bo'linmalar** tomonidan amalga oshirilishi;

har chorak yakuni bo'yicha xavflarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan tegishli **tarkibiy bo'linmalar** tomonidan amalga oshirilgan ishlarni atroflicha muhokama qilinishi;

e) vazirliklar va idoralarga bir oy muddatda **o'zlari qabul qilgan** normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu Farmonga muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilganligi.

3. Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasini yuritish boshqarmasi (G'afurov):

Davaktiv agentligining hududiy boshqarmalari rahbarlari bilan birgalikda **har yili 1-aprelga qadar** davlat aktivlarini hamda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini sotishdan **tushumlarning hududlar, tuman (shahar)larga taqsimlangan qismi bo‘yicha ma‘lumotlarni** hudud, tuman (shahar)lar kesimida **tegishli halq deputatlari Kengashlariga taqdim etib borilishini;**

Ishlar boshqaruvchisi bo‘limi (Isroilov), Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi (Usmonov), Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi (Butikov), Bino va molk-mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiyasi (Maxmudov) hamda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (Sulaymanov) bilan birgalikda **har chorakda** tovar, ish va xizmatlarni yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar **to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni Davaktiv agentligining rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilishini ta‘minlasin.**

4. Davlat aktivlarining hisobini yuritish boshqarmasi (Bobobekov), Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish departamenti (Qurbonaliyev) ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari, davlat unitar korxonalarining budget tizimi budgetlari mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlar smetasi va ularga asosan amalga oshirilgan xarajatlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish bo‘yicha imzolangan shartnomalar hamda ular asosida qabul qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) hamda obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar bo‘yicha amalga oshirilgan xarajatlar **to‘g‘risidagi ma‘lumotlarini har chorakda rasmiy veb-saytlarga e‘lon qilib borishi** yuzasidan zarur choralarni ko‘rsin.

5. “Elektron onlayon auksionlarni tashkil etish markazi” AJ (Murodov) 2025-yil 1-fevralga qadar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqini sotishga doir **o‘z ma‘lumotlar bazasini** Soliq qo‘mitasi va Qishloq xo‘jaligi vazirligi **ma‘lumotlar bazalariga integratsiya qilish** choralarni ko‘rsin.

6. Ichki audit xizmati bo‘limi (Alibekov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Budget mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF–100-son Farmoniga kiritilgan o‘zgartirishlarni inobatga olgan holda avval qabul qilingan ichki normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqsin va zaruratga ko‘ra ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflarni tayyorlasin.

7. Davaktiv agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari joriy yilning 20-yanvariga qadar Davaktiv agentligi tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni mazkur Farmonga muvofiqlashtirish yuzasidan takliflarni Metodologiya boshqarmasiga taqdim etsin.

Metodologiya boshqarmasi (Nabiyev) Davaktiv agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari tomonidan taqdim etilgan takliflarni (mavjud bo‘lganda) umumlashtirgan holda joriy yilning 25-yanvariga qadar Davaktiv agentligi tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni mazkur Farmonga muvofiqlashtirish yuzasidan zarur choralarni ko‘rgan holda, natijasi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritсин.

8. Ijro intizomi nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limi (Sultanova) mazkur buyruqning nusxalarini Davaktiv agentligi markaziy apparatining tegishli tarkibiy bo'linmalari, idoraviy mansub tuzilmalari va hududiy boshqarmalariga yetkazsin.

9. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish Davaktiv agentligi direktorining birinchi o'rinbosari N. Xusanov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Ortikov